

“Temiryo’linfratuzilma” AJ
Andijon temir yo’l masofasi filiali boshlig’i
xuzuridagi majlis yig’ini

B A Y O N I

03.02.2026 yil

Andijon shahri

<i>Raislik qiluvchi:</i>	Korxonada boshlig’i o’rinbosari -	O.Maxkamov
	Bosh muxandis -	A.Isaqov
<i>Qatnashdilar:</i>	Idora xodimlari -	25 kishi

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni talablarini o‘rganish.
2. Tashkilotda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili.
3. Xizmat vazifalarini bajarishda halollik, shaffoflik va mas’uliyatni oshirish.

Yig‘ilishni tashkilot rahbari ochib berdi va bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini ta’kidladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan olib borilayotgan tizimli ishlar haqida qisqacha ma’lumot berildi. So‘zga chiqqanlar korrupsiyaning jamiyat va davlat tizimiga yetkazadigan salbiy ta’siri, xodimning obro‘sigacha putur yetkazishi, jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishi haqida tushuntirish berdilar. Ayniqsa, temiryo‘l tizimida xavfsizlik, intizom va mas’uliyat birinchi o‘rinda turishi, har qanday noqonuniy harakat jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi qayd etildi.

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, majlis

Q A R O R Q I L A D I:

Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha profilaktik tadbirlar muntazam ravishda o‘tkazilsin.
Har bir xodim O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga qat’iy rioya qilsin.
Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda bu haqda darhol rahbariyatni xabardor qilish majburiy deb belgilansin.
Xizmat intizomini buzgan hamda korrupsiyaviy harakatlarga yo‘l qo‘ygan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rilsin.
Korrupsiyaning oldini olish maqsadida tushuntirish va targ‘ibot ishlari kuchaytirilsin.

Yig'ilish yakunida barcha xodimlar halollik, shaffoflik va qonuniylik tamoyillariga sodiq qolishlarini bildirdilar.

Majlisni yozib borivchi:  Abdunabiyev M.